

ISSN : 3030-3974

MAKON VA ZAMON

Пространство и время
Space and time

4

2026

MUNDARIJA:

Бош муҳаррир минбари	“Ясоқлар” – ҳуқуқ фалсафасининг мумтоз намунаси	7
М. Каршибоев	Книга, написанная на фоне кардинальных перемен. Размышления узбекского переводчика о книге си цзиньпина «о государственном управлении»	10
Б. Талапов	Ахлоқ — қонуннинг руҳи, маънавий негизи	15
A. Tashanov	Mo‘tadillik falsafasi nima?	20
M. Mamatov	Yangi ma’naviy makon yaratish – yoshlar kamolotining muhim omili	24
H. Rasulov	Ekosofiya: inson va tabiat muvozanati falsafasi	28
A. Мирзахмедов	Кулгунинг ижтимоий нафосати	31
X. Saidov	Yoshlar ongida o‘zbek harbiy sarkardalari vatanparvarlik timsoli sifatida	36
S. Karimov	Ijtimoiy tarmoq algoritmlari ta’sirida shakllanayotgan hayotiy maqsadlarning falsafiy-axloqiy tahlili	40
B. Shamsiddinov	Tadbirkorlik va ishbilarmonlikning ma’naviy-axloqiy konsepsiyasi	45
M. Zoirova	Yangilanayotgan O‘zbek jamiyatida jamoatchilik nazoratini kuchaytirish zarurati	49
Г. Нишонбоева	Ҳозирги даврда “маданият” ва “маънавият” тушунчаларини ёшлар онгига сингдириш зарурати	53
H. Abdumajidova	Yangi O‘zbekiston markaziy osiyo mamlakatlari modernizatsiyalashuvi va ijtimoiy-siyosiy munosabatlar faollashuvining muhim sub’yekti va faol a’zosi..	57
J. Axmedov	Qashqadaryo vohasida mavsumiy marosimlarning milliy qadriyatlar bilan uyg‘unligi	61
Q. Kdirbayev	“Aksiosfera” tushunchasining nazariy-falsafiy mohiyati va shakllanish genezisi	64
O. Ортиқов	Глобаллашаётган дунё ва Ўзбекистон: ижтимоий-фалсафий мерос нуқтаи назаридан	68
K. Abidova	Yangilanayotgan O‘zbekistonda nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish tizimining me’yoriy-huquqiy asoslari	72
H. Suvonqulov	Abdurahmon Toshkandiy qarashlarida axloqiy madaniyat va shaxs kamoloti ...	76
S. Azamova	Oila va mahalla institutining yoshlar ekologik ongini shakllantirishdagi o‘rni...	81
N. Tog‘ayev	Imom al-Buxoriy hadislarida ilm o‘rganish masalalari xususida	85
Sh. Hamroyev	Shahobiddin Marjoniyning pedagogik qarashlari va falsafasi	89
O. Межевникова	Возможности и риски цифровизации образования и развития виртуального обучения	93
I. Umarova	Yoshlar dunyoqarashida insonparvarlik tamoyilini shakllantirishning ayrim muammolari	97

IMOM AL-BUXORIY HADISLARIDA ILM O'RGANISH MASALALARI XUSUSIDA

**Tog'ayev Nodirjon Ergashevich,
Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand davlat universiteti tadqiqotchisi
falsafa doktori (PhD) dotsent**

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada Imom al-Buxoriy hadislarida ilm olish, ustozga hurmat va ma'rifatning inson kamolotidagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, hadislar asosida ilm o'rganishning axloqiy-me'yoriy tamoyillari hamda yoshlarni ilmga rag'batlantirish masalalari tahlil qilingan. Maqolada ilmning jamiyat taraqqiyoti va ma'naviy yuksalishdagi ahamiyati haqida ilmiy xulosalar bayon etilgan.*

***Kalit so'zlar:** Imom al-Buxoriy, hadis, ilm, ma'naviyat, ma'rifat, axloq, ta'lim-tarbiya, ma'naviy barkamollik.*

***Аннотация.** В данной статье освещается роль приобретения знаний, уважения к учителю и просветления в совершенствовании человека в хадисах имама аль-Бухари. Также на основе хадисов анализируются этические и нормативные принципы получения знаний и вопросы поощрения молодежи к обучению. В статье представлены научные выводы о важности знаний для развития общества и духовного роста.*

***Ключевые слова:** Имам аль-Бухари, хадис, знание, духовность, просветление, этика, образование, духовное совершенство.*

***Abstract.** This article explores the role of acquiring knowledge, respect for one's teacher, and enlightenment in human development, as exemplified in the hadiths of Imam al-Bukhari. The hadiths also provide an analysis of the ethical and normative principles of acquiring knowledge and encouraging youth to learn. The article presents scientific findings on the importance of knowledge for social development and spiritual growth.*

***Keywords:** Imam al-Bukhari, hadith, knowledge, spirituality, enlightenment, ethics, education, spiritual perfection.*

Kirish. Islom olamida IX asr hadis ilmi rivoji uchun oltin davr hisoblanadi. Bu davrda hadis to'plash sohasida "musnad", "sahih" va "sinan" deb atalgan turli yo'nalishlar vujudga keldi. Eng to'g'ri, ishonarli hadislar kiritilgan "sahih" yo'nalishiga muhaddis olim Imom Ismoil al-Buxoriy asos solgan. Imom al-Buxoriy o'ta kamtar, insonparvar, xulq-odobda tengsiz, saxovatli inson bo'lgan. U hadis ilmining yetuk sultoni bo'lsa ham, vaqti kelganda zamondoshlari, shogirdlaridan ham o'rgangan. Bir necha tarixchilarning ta'kidlashicha Buxoriy Hijoz, Makka, Madina, Toif va Jiddaga qilgan safari 6 yil davom etgan. So'ng Basra, Kufa va Bag'dodga safar qiladi. Shom va Misrga o'tadi.

Imom al-Buxoriy bobomizning betakror merosi musulmon dunyosining ko'plab madrasayu dorilfununlarida asosiy qo'llanma sifatida o'qitilayotganligi bejiz emas. Islomshunos olim Ubaydulla Uvatov ta'kidlaganidek, "Dunyoning qay burchagiga bormaylik, biz - O'zbekistonliklarga Imom al-Buxoriyning vatandoshlari, uning avlodlari, nabiralari - Buxoriylar deb katta hurmat, alohida ehirom bilan qaraydilar. Bamisoli biz Makkai Mukarramani ziyorat qilishga intilganimizdek, jumlai-jahonda mo'min-musulmonlar Imom al-Buxoriyning tabarruk qabrlarini ziyorat qilishga orzumandlar" [8: 17].

Imom al-Buxoriyning 4 jildlik "Al-Jome' as-sahih" (Ishonarli hadislar) deb nomlangan hadislar to'plami islom olamida boshqa muhaddislar tuzgan hadislar to'plami orasida eng ishonarli va mukammalidir. Bu haqda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "Islom olamida Payg'ambarimiz Muhammad alay-hissalom hadislar to'plamining ishonchli manbai deb e'tirof etilgan «Al-jome' as-sahih» to'plami barcha muhaddislar ustozlari bo'lmish Imom Buxoriyning ko'p yillik fidokorona izlanishlari samarasidir. O'n ikki asrdiki, ushbu asar ahamiyatiga ko'ra, muqaddas Qur'ondan keyin islom dini haqidagi ikkinchi ishonchli yozma manba bo'lib

qolmoqda” [4: 28] – deb ta’kidlaydi. Bu asarda payg‘ambar sallallohu alayhi va sallam hadislaridan tashqari, fiqh, islom marosimchiligi, axloq-odob, ilmi nujum (astronomiya), tadbirkorlik, ta’lim-tarbiya, tarix, etnografiyaga doir ilmiy ma’lumotlar ham o‘z aksini topgan. 600 ming hadisdan faqat 7275 tasi kiritilgan bu hadislar to‘plamida hozirgi davr uchun ham nihoyatda zarur va dolzarb bo‘lgan 1000 dan ortiq diniy-ilohiy, dunyoviy-ilmiy, ijtimoiy-iqtisodiy, axloqiy, aksiologik va ijtimoiy adolat va hamkorlik masalalar haqida muhim yo‘nalishlar beradi. “Imom al-Buxoriy “Sahih hadislar to‘plamiga faqat ishonchli hadislarini kiritgan. Hadislar xalqimizning turmush tarzi, xulq atvori, salohiyat va hayotga munosabatining tashkil topishi va ro‘yobga chiqarishida katta imkoniyat yaratadi” [3: 179].

Imom al-Buxoriy qarashlarining asosini ilmning qudratiga bo‘lgan xayrixohligi yotadi. Uning uchun ilm hamma narsaning asosi, har qanday taraqqiyotning boshlanishidir. Ilm inson uchun nafaqat ma’naviy-ilohiy-ruhiy qudrat balki jismoniy-ruhiy barkamollik va haqiqatga erishishning yo‘lidir. Shuning uchun ham u “Dunyoda ilmdan boshqa najot yo‘q va bo‘lmag‘ay” degan qoidani ilgari suradi va unga o‘zi ham amal qiladi.

Inson hayotidagi ishlarni haqiqiy to‘g‘ri yo‘lga soladigan vosita bu ilm bo‘lib, inson ilmni egallab haqiqiy sharafiga erishadi. Inson ilm orqali yaxshi-yomonni taniydi, halol va haromning farqiga boradi, do‘stlik va qarindosh-urug‘chilikning fazilatlarini anglaydi, qonun-qoidalarni tushunadi, haq-huquqlarini biladi. Bularning hammasi hadislarda har bir insonni tarbiyalashning muhim vositasi sifatida o‘z ifodasini topgan. Hadislarda tahlil etilgan g‘oyalarda inson hayoti bilan bog‘liq bo‘lgan barcha narsalar haqida ma’lumotlar berilgan. Masalan, hadislarining eng muhim jihatlaridan biri ilm fanga e’tiborning qaratilganligi bilan muhimdir.

Adabiyotlar tahlili. Hadislarda inson ilmni faqat boshqalarga da’vat qilmasdan, o‘zi ham ilmiga amal qilishga chaqiriladi. “Ilmga nisbatan go‘yo cho‘pon kabi posbon bo‘linglar, lekin ilmni faqat rivoyat qiluvchi bo‘lmanglar!” [9: 215] - deyiladi. Insonning ilmni o‘rganib, uni boshqa odamlarga o‘rgatishi qo‘llab-quvvatlanadi. Ilmga ega bo‘lib, uni boshqa odamlarga o‘rgatmaslik esa qoralanadi. Ushbu masalaga tegishli hadisda quyidagi fikrlar bayon qilingan. “Ilmni o‘rganib, so‘ng uni boshqalarga o‘rgatmaslik go‘yoki molu dunyoni yig‘ib, uni sarf qilmay, ko‘mib qo‘yish bilan barobardir” [9: 247]. Ilm olishga rag‘bat islom dunyosida juda keng targ‘ib qilinadi. “Ilmda bahillik bo‘lmaydi”, degan hadisda inson o‘z ilmini boshqalarga o‘rgatishi zarurligi masalasiga e’tibor qaratiladi.

Hadislarda xalq o‘rtasida ilmu-ma’rifatni targ‘ib va tashviq qilishda olimlarning mas’uliyati masalasiga ham alohida e’tibor qaratilgan. “Olimlar xalq orasidagi Allohning omonatini xalqqa yetkazuvchi kishilardir” [10: 27] - deyiladi. Inson doimo ilmga intiladi, hayotning sir-asrorlarini faqat ilm orqali bilib oladi.

“Olimlar - payg‘ambarlarning meroshorlari, ilmi payg‘ambarlardan o‘rganishadi. Kimki ilm olgan bo‘lsa, payg‘ambar alayhissalomdan to‘liq ulush olibdi” [1: 40] - degan hadisda ham ilm olish kerakligi uqtirilgandir. Shariatda farz amallar har bir musulmon uchun albatta bajarilishi zarur bo‘lgan amallar bo‘lib hisoblansa, islom dini har bir insonni ilm olishga da’vat etadi. Ilm olishning ibodatdan afzalligi to‘g‘risidagi fikr esa insonni doimo ilm olishga, dunyoqarashini kengaytirishga, adolatli, ma’rifatli jamiyat qurib farovon yashashga da’vat etadi. Umuman olganda Islom dini insonni doimo ilm olishga da’vat etuvchi diniy ta’limot bo‘lib, “Qur’oni Karimda “ilm” so‘zi – “alima” - bilmoq tarzida 750 marta uchrashli ilmiy tadqiqotlarda ta’kidlab o‘tilgan” [6: 158].

Dinning asosini iymon va e’tiqod tashkil etadi. Ilm oliyanob va savobli ish bo‘lib, islom dinida ilm olish ibodat va taqvodan afzal deb hisoblanadi. Chunki ilm dinning asosini, ustunini tashkil etib, ma’naviy merosimizda “ilmi kalom”, “ilmi rivoyat”, “ilmi tavhid”, “aqida ilmi” kabi diniy ilmlar bilan birga, insonning dunyoni aql yordamida bilishiga asoslangan “ilmi hikmat” yo‘nalishi paydo bo‘lib, dunyoviy ilmlarning rivojlanishiga bevosita o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Umuman islomda ilm-fanni egallash, ma’rifatli bo‘lish juda savobli ekanligi qayta-qayta ta’kidlanib, hadislarda “Beshikdan to qabrgacha ilm izlash lozimligi” qayd qilinishining o‘zi juda katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Hadislarda inson yoshlikdan ilm olishga da’vat etiladi.

“Yoshlikda olingan bilim toshga o‘yilgan naqsh kabidir” [2: 108] hadisida ushbu masalaga asosiy e‘tibor qaratilgan.

Ilm narsa va hodisalarning mohiyatini bilish asosida yuzaga keladi. Bilmoq insonga xos sifatdir. Ilm orqali inson yuksak madaniyat va taraqqiyotga erishib boriladi. Inson bilimsiz hech qanday taraqqiyotga erishib bo‘lmaydi. Jaholat, bilimsizlik insonni saodatmand qilmaydi, balki hayvonsifat qiladi. Shubhasis inson aqli tomonidan biror narsaning bor yoki yo‘qligi dalil asosida isbotlansa, bilimga aylanadi. Bilimning ma‘nosi inson tomonidan haqiqatni anglashdir. Inson kamolotida ilm egallash ulkan fazilatlaridan biridir, chunki inson ilm bilan ulug‘vorlikka erishadi. Qur‘oni Karimda hech vaqt ilmlik bilan ilmsiz barobar emasligi e‘tirof etilgan.

Tahlillar va natijalar. Imom al-Buxoriy hadislarida: “Ilmga faqat ta‘lim olish bilan erishiladi” [1: 40] - deyiladi. Ilmli kishilar mamlakat taraqqiyotini yuksaltirishga xizmat qiladi, chunki mamlakat taqdiri, istiqboli bilimli kishilar faoliyatiga bog‘liqdir. Jamiyatda qanchalik ilmli kishilar ko‘payib borsa mamlakat shunchalik ravnaq topadi va mamlakatda barqarorlik yuzaga kelib, taraqqiyot oldinga qarab tez yuksaladi. Eng muhimi hadisi sharifda “Bir soatgina ilm o‘rganish bir kechalik ibodatdan yaxshi, bir kunlik dars olish esa uch oy tutilgan nafl ro‘zadan afzaldir” [9: 215] - deyilgan. Darhaqiqat, insonlar ongida ilmning rivojlanishi oz-oz ilm egallashdan ko‘proq ilm egallashga qarab rivojlanishi, hamda narsa-hodisalarning mohiyatini anglashga qarab borishi izohlangan.

Darhaqiqat, hamma narsaning asosi ilmsizlikka, ma‘rifatsizlikka va ma‘naviy qashshoqlikka borib taqaladi. Taniqli olim Ubaydulla Uvatov “Hadis ilmining sultoni” asarida “Imom al-Buxoriy xorijiy ellardan qaytgach, o‘z vatani Buxoroda ko‘plab shogirdlar va ulamolarga hadis ilmidan saboq berish bilan mashg‘ul bo‘ladi. Ba‘zi bir hasadgo‘y, qora niyatli kishilar esa al-Buxoriyni ko‘ra olmas edilar. Hasadgo‘ylarning nayranglari tufayli al-Buxoriyning Buxoro amiri Xolid Ibn Ahmad az-Zuhliy bilan munosabati yomonlashadi. Bunga yana bir sabab Amir olimdan huzurimga kelib “Al Jome‘ as-Sahih”, “at-Tarix” kitoblarini o‘qib, saboq berishini talab qiladi. Lekin al-Buxoriy: “Men ilmni xor qilib, ularni hokimlar eshigiga olib bormayman, kinga ilm kerak bo‘lsa, o‘zi izlasin, lekin Olloh Taolo ilmni yashirmay, uni toliblarga sarf qilganim uchun oxirat kuni meni mag‘firat qiladi” [7: 64] - deb keltiradi.

Imom al-Buxoriy hadislarida, “Sen bilan men bilgan ilm chumchuq dengizdagi suvni cho‘qilab ozaytirolmagani yanglig‘, Olloh ilmni hech kamaytirolmag‘ay” [7: 47] - degan iborada chumchuq dengiz suvi qanchalik bepoyon bo‘lganligi tufayli uning suvini kamaytira olmaydi, inson ham bu bepoyon dunyoning mohiyatini oxirigacha bilib ulgura olmasligini obrazli qilib ifodalagan.

Istiqlool sharofati bilan Buxoriyning o‘lmas merosi el-yurt bag‘riga qaytdi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Imom al-Buxoriy tavalludining hijriy-qamariy taqvim bo‘yicha 1225 yilligini nishonlash to‘g‘risida” gi qarori (1997 yil 29 aprel) asosida Buxoriyning ilmiy merosini o‘rganish va targ‘ib qilish, xotirasini abadiylashtirish borasida katta ishlar qilindi. 1998 yil 23 oktabrda Samarqandda yubiley to‘y-tantanalari bo‘lib o‘tdi. Alloma abadiy qo‘nim topgan Chelak tumanidagi Xartang qishlog‘ida ulkan yodgorlik majmui ochildi. Bu haqda prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “Mana, biz Samarqandda Imom Buxoriy nomidagi xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini, Toshkent shahrida esa Islom sivilizatsiyasi markazini barpo etmoqdamiz. Bu ishlarni kimgadir ko‘z-ko‘z qilish uchun amalga oshirayotganimiz yo‘q. Maqsadimiz - islom dinining haqiqiy insonparvarlik mohiyatini, ma‘rifiy islomni bolalarimiz ongiga singdirish. Shu yo‘lda bizning buyuk ajdodlarimiz qanday ulug‘ ishlarni amalga oshirganlari haqida ular ana shunday maskanlarga kelib o‘zlari uchun kerakli, eng muhim bo‘lgan bilim va tasavvurlarga ega bo‘ladi. Eng asosiysi, ularning qalbida boy tariximiz, madaniy merosimiz bilan faxrlanish tuyg‘usi kamol topadi” [5: 25] - deb ta‘kidlaydi.

Xulosa. Mustaqil O‘zbekistonimizda muborak dinimizga bo‘lgan munosabatning batamom o‘zgarganligini alohida ta‘kidlash lozim. Xususan, islom olamida “Hadis ilmining sultoni” nomi bilan e‘zozlanadigan Imom Buxoriy, sunnat ilmi dengizi Imom Termiziy, aqida imomlarining buyugi Imom Moturidiy, tasavvuf olamining yorqin chiroqlari Abdulxoliq G‘ijduvoni, islom

huquqshunosligi zabardast ustunlaridan Burhoniddin Margʻinoniy kabi ajdodlarimizning xotirasini abadiylashtirish maqsadida ular qoʻnim topgan maskanlar obodonlashtirilib, xalqimizning sevimli ziyoratgohlariga aylantirilmoqda. Bu xayrli va tarixiy ishlarning hammasi muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev sobitqadamlik bilan olib borayotgan dono va xalqchil siyosatning samarasi boʻlib, oʻz mazmun-mohiyati jihatidan olamshumul ahamiyatga egadir.

Qurʻoni Karim, Hadis, ajdodlarimizning boy ilmiy merosi xalqimizni pokizalikka, iymonli, eʼtiqodli, sof vijdonli va insofli boʻlishga daʼvat etgan. Ularning axloq-odob va taʼlim-tarbiyaga oid pand-nasihatlar va oʻgitlari xalqimizning maʼrifatli boʻlishida hamda yosh avlodni illatli va qabih yoʻllardan qaytarishda, shubhasiz, oʻz ijobiy taʼsirini koʻrsatadi, albatta.

Imom al-Buxoriyning dunyo madaniyati xazinasiga qoʻshgan ulkan hissasini hisobga olib uning bashariyatga qoldirgan boy maʼnaviy merosini chuqur oʻrganish va keng targʻib qilish hamda ezgulik va maʼnaviy komillikka yetaklovchi gʻoyalarini vatandoshlarimiz, ayniqsa yoshlarimizning ongu shuuriga teran singdirib borish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Абу Абдуллоҳ Муҳаммад Ибн Исмоил Бухорий. Саҳиҳи Бухорий: диний-маърифий / Абу Абдуллоҳ Муҳаммад Ибн Исмоил Бухорий. –Тошкент: “Munir” нашриёти, 2021.
2. Ахлоқ-одобга оид ҳадис намуналари. –Тошкент: “Фан”, 1990.
3. Зокиров М. Маърифий сабоқлар. “Сангзор” нашриёти. – Жиззах, 2002.
4. Мирзиёев Ш.М Таълим ва маърифат – тинчлик ва бунёдкорлик сари йўл // Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Т. 1. Т.: „Ўзбекистон“, 2018.
5. Мирзиёев Ш.М Конституция – эркин ва фаровон ҳаётимиз, мамлакатимизни янада тараққий эттиришнинг мустаҳкам пойдеворидир. // Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. Т. 2. Т.: „Ўзбекистон“, 2018.
6. Носирхўжаев С.Х., Лафасов М.Ф., Зарипов М.З. Маънавият асослари. –Тошкент: “Шарқ”, 2005.
7. Уватов У. Ҳадис илмининг султони. –Самарқанд: Имом Бухорий Халқаро Маркази, 2009.
8. Уватов У. Ҳадис илмининг султони // Имом ал-Бухорий. Илмий-маърифий тўплам. “Имом ал-Бухорий халқаро хайрия жамғармаси” нашри. - Самарқанд: 1998.
9. Шайх Абдулазиз Мансур. Минг бир ҳадис. –Т.: Ғофур Ғулом нашриёти, 2017.
10. Юз бир ҳадис ва унинг шарҳи. –Тошкент: “Меҳнат”, 1991.